

## NAMANGAN VILOYATI RESURS POTENSIALI SAMARADORLIGIDAN FOYDALANISH HOLATLARINI TAHLIL QILISH VA VA ULARNI BAHOLASH (BOG'DORCHILIK TARMOG'I MISOLIDA)

**Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li**  
*mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida intensiv usullardan keng foydalanish, yangi innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, yirik bog'dorchilik klasterlarini tashkil etish va mahsulot samaradorligiga erishish yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qishloq xo'jaligining asosiy muammolari, intensiv bog'dorchilik, hududlarning ixtisoslashuvi, bozor iqtisodiyotida talab yuqori bo'lgan mahsulotlar, bog'dorchilik klasterlari, zamonaviy logistika markazlari.*

Ma'lumki, Namangan viloyati respublikamizning sharqiy viloyatlaridan biri bo'lib, tabiiy geografik o'рни uning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini yanada yuksaltirish uchun qulay hisoblanadi. Viloyat hududi asosan, tog' va tog'oldi mintaqasida joylashganligi sababli, uning hamma rayonlari bir xil darajada rivojlangan emas. Viloyatning Chortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Pop tumanlari deyarli tog'lik, qolgan tumanlari deyarli tekislik va tog'oldi rayonlariga kiradi. Demak, ushbu jihatlar viloyatning nafaqat tabiiy, balki iqtisodiy joylashuvining qulayligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Viloyat iqtisodiyotini asosini yengil sanoat tashkil etadi. Uning ayniqsa, to'qimachlik, teri-poyabzal va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yetarli darajada rivojlanib kelmoqda.

Bugungi kunda, ushbu sanoat tarmoqlari bilan birgalikda, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari bo'lgan bog'dorchilik, meva-sabzavot ekinlari yetishtirish kabi tarmoqlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi, viloyat shimoli-sharqdan janubi-g'arbga qarab pasayib boradi. Natijada, respublikaning eng yirik daryolaridan biri bo'lgan Sirdaryo daryosi viloyatning eng pastki qismidan oqib o'tadi va Chust, Mingbuloq va Pop tumanlarida suvdan foydalanishda ayrim noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bunga qarama-qarshi holda Yangiqo'rg'on tumani o'zining suv resurslariga viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan yaxshi ta'minlanganligi bilan ajralib turadi lekin, tabiiy sharoiti paxta yetishtirish uchun noqulay, shunga muvofiq bu tumanda asosan, sabzavot ekinlari (ayniqsa kartoshka)ni, bog'dorchilikning ayrim tarmoqlari (uzumchilik)ni rivojlantirish iqtisodiy samara beradi. Pop, Chust, Kosonsoy, Chortoq tumanlarining ayrim hududlari ham tog'li rayonlar hisoblanib, tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligining yer, suv kabi resurslaridan foydalanishda ayrim noqulayliklarni keltirib



chiqaradi. Demak, biz ushbu hududlarda endi paxta xomashyosi emas balki, tabiiy sharoiti va resurslaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish zarur. Sababi, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talab yuqori bo'lgan, aholi ehtiyojlarini qondira oladigan mahsulotlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi Namangan viloyati respublikadagi demografik bosim yuqori bo'lgan, aholisining soni tez sur'atlarda ortib borayotgan viloyat hisoblanadi. Shunday ekan aholi sonining ko'payishi birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishga, shu bilan birga qo'shimcha ish o'rinlariga bo'lgan talabning ham ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, paxtaga qaraganda bog'dorchilik mahsulotlaridan keladigan daromad ancha yuqori. Shu bilan birga adirli rayonlarda bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirish, paxtani esa Uchqo'rg'on, Uychi, To'raqo'rg'on, Namangan tumanlarida yetishtirish va yetishtirilgan paxtani qayta ishlovchi mavjud korxonlarni modernizatsiya qilish va yangilarini bunyod etishimiz bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Albatta, bu tumanlarda tabiiy sharoit bilan birga yer, suv resurslari, ishchi kuchi yetarli. Paxta hosili kam bo'lgan tumanlarda esa bog'dorchilik tarmoqlarini "Yashil inqilob" ya'ni fan-texnika yutuqlaridan qishloq xo'jaligi tarmoqlarida samarali foydalanib, intensiv usulda tashkil etish kerak. Bog'dorchilik klasterlarini bunyod etish yashil iqtisodiyotning muhim shartlaridan biri bo'lmoqda. Ya'ni bunda zamonaviy tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanish, kerakli agrotexnik tadbirlarni muntazam ravishda olib borish lozim. Masalan, hozirgi kunda Pop, Mingbuloq, Chust, To'raqo'rg'on tumanlarida asosan, bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu rayonlarda hozirgi kunda mevali daraxtlar maydoni kengaytirilmoqda. Asosan, gilos, o'rik, olxo'ri va nok yetishtirish va uni eksport qilish ko'zda tutilgan. Ushbu mevali daraxtlar ekilgan maydonlar hali ham kengaytirilmoqda. Gilosning eng serhosil va kasallikka chidamli navlarini chet eldan olib kelib ekilmoqda. Dastlab, sinov uchun To'raqo'rg'on tumanida "Gold Fresh Fruits" MCHJ da 2016-yilning bahorida 482 gektar maydonda intensiv bog' tashkil etilgan. 300 dan ziyod kishi mehnat qilayotgan jamiyatda gilos, o'rik, olxo'ri, shaftoli va xurmo ko'chatlari ekildi. Yana 104 gektar yer gilos ekish uchun tayyorlanmoqda. Ushbu daraxtlar 3 yilda hosilga kiradi va eksportga chidamli navlardan biri hisoblanadi. Mazkur intensiv bog'da bir yilda 10 ming tonnadan ortiq mahsulot yetishtirish hamda 30 mln dollarlik eksport qilish ko'zda tutilgan. Kelajakda korxonada 6,5 gektar yer maydonida meva-sabzavotni qayta ishlash, saqlash va qadoqlash logistika markazi tashkil etish mo'ljallangan. Natijada, 300 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratiladi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yuqori texnologiya asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, bog'dorchilikni



rivojlantirish, ayniqsa, gilos plantatsiyalarini tashkil qilib, uning serhosil, ertapishar navlarini ekishni ko'paytirishimiz kerak". Endilikda bu hududlarda bunday maydonlarni kengaytirish ishlari tez suratlarda olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, birinchidan ushbu hududlarda minglab gektar maydonlar bo'sh, foydalanilmay kelyapti. Ushbu hududlarning iqtisodiy rivojlanishini yanada tezlashtirish va bo'sh yerlardan samarali foydalanish zarur. Ikkinchidan viloyat iqtisodiy salohiyatini barqaror sur'atlarda tez rivojlantirish kerak. Uchinchidan respublikamiz aholisining ichki iste'moli uchun meva yetkazib berish va ehtiyojdan ortganini eksport qilish, keyinchalik esa mevani qayta ishlaydigan korxonalarini bunyod etish ko'zda tutilgan. Ushbu rayonlarda zamonaviy sug'orish usullarini qo'llash zarur. Natijada, suv taqchilligi bartaraf etiladi. Huddi shu yerlarda yerdan yanada samarali foydalanish maqsadida, mevali daraxtlar orasida sabzavot ekinlarini ham yetishtirilsa yerdan samarali foydalanish va yanada ko'proq foyda olish imkonini beradi. Viloyatning qolgan paxtakor rayonlarida esa, paxtani qayta ishlaydigan paxta tozalash, yog'-moy, to'qimachilik korxonalarini bunyod etish va ularni zamonaviy asbob-uskunlar bilan ta'minlash hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarib, xorijga ham eksport qilinsa, viloyat iqtisodiy salohiyati yanada ortadi. Shunda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki aholini ish bilan ta'minlash darajasiga ham erishiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.B.Berkinov va boshq. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash. - T., "TDIU", 2010.
2. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., "TDIU", 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-iyundagi "Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohalarini 2017-2018-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3079-sonli qarori.
4. [www.Namangan.uz](http://www.Namangan.uz) veb-sayti.

